

Baratov Diyorbek Fazliddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 1 – bosqich talabasi

diyorbekb2005@gmail.com

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHI VA IQTISODIY O‘SISH UCHUN BARQAROR INVESTITSIYA MUHITINI TA’MINLASH MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishida unga investitsiyalarni keng ko‘lamda jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishning dolzarbligi ko‘rib chiqilgan. Bunda investitsiyalarni huquqiy jihatdan himoyalashning amaliy mexanizmini ishlab chiqish va investitsion muhitni yanada yaxshilashga e‘tibor qaratilgan. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish, xorijdan tog‘ridan tog‘ri investitsiyalarni olib kirish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturini amalga oshirish masalalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlari: investitsion muhit , ishlab chiqarishni modernizatsiyasi , kapitallashuv , ekspartyor , iqtisodiyot drayveri , modernizatsiya , kompleks diversifikatsiya qilish

Аннотация: В данной статье рассматривается важность создания благоприятных условий для привлечения масштабных инвестиций в развитие экономики Узбекистана. Основное внимание уделяется разработке практического механизма правовой защиты инвестиций и дальнейшему улучшению инвестиционной среды. Изучены вопросы дальнейшего углубления структурных изменений в экономике, ускорения инвестиционной деятельности предприятий, привлечения прямых инвестиций из-за границы, реализации программы технического и технологического перевооружения.

Ключевые слова: : инвестиционная среда, модернизация производства, капитализация, экспатриант, экономический драйвер, модернизация, комплексная диверсификация

Abstract: This article examines the importance of creating favorable conditions for attracting large-scale investments in the development of Uzbekistan's economy. It focuses on developing a practical mechanism for legal protection of investments and further improving the investment environment. Issues of further deepening of structural changes in the **economy**, acceleration of investment activities of enterprises, bringing in direct investments from abroad, implementation of the program of technical and technological rearmament were studied.

Key words: investment environment, modernization of production, capitalization, expatriate, economic driver, modernization, complex diversification

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmlarini joriy etish va investitsion muhitni yanada yaxshilash iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Qulay investitsion muhitni yaratish va faol investitsiya siyosatini amalga oshirish mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirishning muhim omiliga aylandi. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning o‘rni beqiyosdir. Bunda ilg‘or texnologiyalarni tadbiiq etish, yangi ish o‘rinlari yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta‘minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo‘lgan.

O'zbekistonning iqtisodiyotini rivojlantirishda davlatning investitsion siyosatini ham aytib o'tishimiz mumkin. Davlat investitsion siyosatini shakllantirishning maqsad va vazifalari xorijiy investorlarning manfaatli qiziqishlaridan kelib chiqadi. Xorijiy investorlarining qoplanish mudati, investitsiyalarning kapitallashuv jarayonlari tomonlarulushlari foydaning bo'linishi shuningdek mamlakatda bozor mexanizmlarining ishlash tartiblari va bunga rivojlangan ekspartyor davlatlar va halqaro tashkilotlarning munosabatlari masalariga e'tiborni qaratadi. Siyosat ma'lum bir maqsaddagi vazifalarni amalga oshirishdagi harakat tizimidir. Investitsiya munosabatlarning bunday tomonlari mamlakat ichkarisidagi hukumat tomonidan ishlab chiqiladigan va qabul qilinadigan qarorlar va qonon – qoidalar bilan yaratiladi. Investitsion faoliyatni samarali olib borishga qaratilgan hukumat tomonidan qabul qilinadigan tadbirlar tizimiga investitsiya siyosati deyiladi. Investitsiya siyosati davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishdagi doimiy maqsadli faoliyatlarning muhim bir qismi hisoblanadi. Investitsiya siyosati davlat siyosiy faoliyatining asosi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va barqaror o'sish sur'atlarini saqlashdagi eng muhim va eng asosiy yo'nalish bu – investitsiyalardir. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev “ 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi” da bu sohaga quyidagi fikrlarini bildirib o'tgandilar: “Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi”. Mamlakatimizda investitsiya siyosatini tubdan takomillashtirish va isloh qilish, uni amalga oshirish yuzasidan zamonaviy, samarali yondashuv va mexanizmlarni joriy etish, shuningdek, investitsiya jarayonlarini jadallashtirish va umuman ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, avvalambor, iqtisodiyot tarmoqlarini, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini jadal rivojlantirish va modernizatsiya qilishni, sanoat ishlab chiqarishni kompleks diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Bu masalaga Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi” to'g'risidagi farmonining 3.4-bandida “Investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish” kabi yo'nalishlar tanlab olingan edi. Bu yo'nalishlarni takomillashtirish orqali iqtisodiyotimizning barqaror o'sishiga erisha olamiz. Shu bilan bir qatorda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 18-yanvar kuni 2024-yilda investitsiya, eksport va sanoat sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Shu kanferensiya davomida prezident xorijiy investitsiyalarni YIM ga katta tasiri borligini va shu qatorda “O'zbekiston 2030 „ strategiyasida shu xorijiy investitsiyalar ham kirg'izilganini ham aytib o'tganlar . ¹“O'zbekiston – 2030” strategiyasida mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish maqsadi belgilangan. Bunga faqat ichki bozor bilan erishib bo'lmaydi, asosiysi – xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish va eksportni ko'paytirish zarur.

Shuni aytib o'tish kerakki oxirgi yillarda O'zbekistonga xorijiy investitsiyalar darajasi ko'payib bormoqda shu qatorda juda ko'p lider mamlakatlar ham hattoki bizlarning mamlakatga qiziqish bildirib investitsiya miqdorini oshirishmoqda misol uchun 2022-yilga kelib, mamlakat iqtisodiyotiga investitsiya kiritgan mamlakatlar soni 50 dan ortdi. Ularning orasida Rossiya, Xitoy, Turkiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar yetakchilik qilmoqda. Mamlakatga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2017-yilda 3,3 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil yakunida ushbu ko'rsatkich uch barobar ortib, 9,8 milliard dollarga yetdi. Buning natijasida xorijiy investitsiyalar va kreditlarning

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 18-yanvar kuni 2024-yilda investitsiya, eksport va sanoat sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishida gi nutqilaridan

jami investitsiyalardagi ulushi 23,8 foizdan 40,5 foizgacha ortdi. Juda ko'p statistikalar shuni ko'rsatadiki birgina bizning mamlakatimiz emas ko'pgina Osiyo qitasidagi mamlakatlarga lider mamlakatlar investitsiya kirg'izmoqda buning asosiy sababi deb Osiyo qitasidagi mamlakatlarda resurs bor ishchi kuchi bor va hu qatorda bu qitada joylashgan juda ko'p mamlakatlarda ishchi kuchi arzon va sifatli bo'lganligi ham katta ahamiyatga moyil narsa . Misol qilib oladigan bo'lsak Apple kompaniyasi smartfonlari 2024 yil eng ko'p sotilgan smartfonlari qatoriga kirdi va bu smartfonlar 2022 yilgacha Xitoy Xalq Respublikasidan Hindiston va Tailandga ko'chirishni boshlagan edi va 2024 yilda gi yangi ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak Apple kompaniyasi smartfonlarga ketadigan maxsulotlarni ham ishlab chiqarishni XXR dan Vetnamga ko'chirishni boshlagan bu esa juda ko'p xorijiy investorlarni qiziqtirib ularni hamm shu ishga undamaoqda . Bu bilan investorlar ham katta daromad topadi va o'sha mamlakatning iqtisodiyotiga ijobiy tasir qiladi .Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mamlakatimizga xorijiy investitsiyalar ko'magida korxonalariga zamonaviy texnik-texnologiyalar joriy qilib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanadi, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lg'aqo'yish, va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining turmush darajasini oshirish imkoni yaratiladi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlashga ko'maklashadi, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlari, moddiy-texnik bazasi yangilanadi va texnik qayta qurollanadi, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalar barpo etiladi.

Mamlakatimiz hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash respublikamizda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmoqda. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, turmush sharoitlarining yaxshilanishi ham bevosita ularning iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bog'liq. Mamlakat iqtisodiyoti hududlardan tarkib topgan bir butun tizimni tashkil etgani sababli, uning har bir mintaqasidagi rivojlanishni ta'minlash mamlakatimizning uzluksiz taraqqiyotiga zamin yaratadi. Shunday ekan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mamlakat va uning mintaqalarida yaratilgan investitsion jozibadorlik va nisbiy afzalliklar muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni milliy korxonalariga jalb etishda quyidagiustuvor yo'nalishlarni belgilash maqsadga muvofiqdir:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohalarini rivojlantirish;
- mineral xom ashyo resurslarini, shu jumladan, neft va gazni qazib chiqarish, qayta ishlash bo'yicha ekologik ishlab chiqarishni tashkil etish;
- transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilm talab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;
- turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro va ichki turizmning zamonaviy infratuzilmasini yaratishga erishish. Mamlakatimiz hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash respublikamizda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmoqda. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, turmush sharoitlarining yaxshilanishi ham bevosita ularning iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bog'liq. Mamlakat iqtisodiyoti hududlardan tarkib topgan bir butun tizimni tashkil etgani sababli, uning har bir mintaqasidagi rivojlanishni ta'minlash mamlakatimizning uzluksiz taraqqiyotiga zamin yaratadi. Shunday ekan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mamlakat va uning mintaqalarida yaratilgan investitsion jozibadorlik va nisbiy afzalliklar muhim o'rin tutadi.

Undan tashqari O'zbekistondan horijdan kirib kelgan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investetsiyalarni olib qaraydigan bo'lsak. (1-jadval)

Hududlar	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	129,9	138,1	95,6	102,9	100,2

Qoraqalpog'iston Respublikasi	169,9	100,3	69,9	105,1	114,9
Andijin vil.	113,7	129,0	110,6	106,0	116,5
Buxoro vil.	60,6	95,9	104,7	147,4	94,2
Jizzax vil.	158,1	194,9	147,4	72,4	104,6
Qashqadaryo vil.	112,4	131,2	76,5	77,8	80,0
Navoiy vil.	188,0	144,3	77,1	86,0	109,4
Namangan vil.	178,1	131,1	88,0	100,5	104,2
Samarqand vil.	131,4	134,5	128,8	98,7	111,6
Surxondaryo vil.	164,2	144,0	77,4	109,7	87,5
Sirdaryo vil.	131,0	186,0	111,2	107,7	135,1
Toshkent vil.	139,9	158,8	92,2	120,3	110,7
Farg'ona vil.	145,9	132,0	113,5	105,7	112,4
Xorazm vil.	111,7	150,7	92,7	139,3	94,2
Toshkent sh.	138,2	145,8	108,6	105,0	87,2

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarni jalb qilishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Ijtimoiy omillar:

- Xususiy mulk va xorijiy investitsiyalarga bo'lgan mahalliy aholining munosabati;
- Ishchilar qatlamining ijtimoiy faolligi;
- Jamiyatdagi demokratik ongning yaxlitlik darajasi;
- Umuman barcha qatlamdagi aholining intellektual salohiyati;

Xususiy mulk va xorijiy investitsiyalarga bo'lgan mahalliy aholining

- Ishchilar qatlamining ijtimoiy faolligi;
- Jamiyatdagi demokratik ongning yaxlitlik darajasi;
- Umuman barcha qatlamdagi aholining intellektual salohiyati;
- Jamiyatni ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha ilg'or g'oyalarning mavjudligi;

2. Iqtisodiy omillar:

- Iqtisodiyotning umumiy va barqaror holati;
- Inflyatsiya darajasining bir maromda belgilangan parametrlarda bo'lishi;
- Kredit hajmi va uning foiz stavkasi;
- Iqtisodiy faol va faol bo'lmagan ishchi kuchidan foydalanish tartibi;
- Valyuta kursining belgilangan me'yorda saqlanib turishi;
- Ma'lum bir mahsulot yoki xizmat turiga nisbatan ichki va tashqi bozordagi talab hamda taklif o'rtasidagi munosabat;
- Soliq imtiyozlari va soliq yukini yengillashtirish imkoniyatlari;
- Bojxonadagi imtiyozlar;
- Iqtisodiyotning umumiy va barqaror holati;
- Inflyatsiya darajasining bir maromda belgilangan parametrlarda bo'lishi;
- Kredit hajmi va uning foiz stavkasi;
- Iqtisodiy faol va faol bo'lmagan ishchi kuchidan foydalanish tartibi;
- Valyuta kursining belgilangan me'yorda saqlanib turishi;
- Ma'lum bir mahsulot yoki xizmat turiga nisbatan ichki va tashqi bozordagi talab hamda taklif o'rtasidagi munosabat;
- Soliq imtiyozlari va soliq yukini yengillashtirish imkoniyatlari;
- Bojxonadagi imtiyozlar;

3. Siyosiy omillar:

- Siyosiy barqarorlik, ya`ni har bir mamlakatda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik darajasi;
- Xalqaro kelishuvlarga rioya qilish va ularga amal qilish darajasi;
- Davlatning iqtisodiyotda tutgan o`rni;
- Davlat organlarining samarali faoliyat olib borayotganlik darajasi;

27

- Investitsiyalarga nisbatan davlatning investitsion siyosati;
- Davlatning turli xalqaro birjalarda ishtirok etishi va bitimlarga ega
- Siyosiy barqarorlik, ya'ni har bir mamlakatda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik darajasi;
- Xalqaro kelishuvlarga rioya qilish va ularga amal qilish darajasi;
- Davlatning iqtisodiyotda tutgan o`rni;
- Davlat organlarining samarali faoliyat olib borayotganlik darajasi;
- Investitsiyalarga nisbatan davlatning investitsion siyosati;
- Davlatning turli xalqaro birjalarda ishtirok etishi va bitimlarga ega bo'lishlilik darajasi.

Yuqoridagi omillarni mamalakatimiz iqtisodiyotida amal qilish darajasini

oshirish orqali biz iqtisodiyotimizga ko`proq xorijiy investitsiyalarni jalb qila

olamiz. Milliy iqtisodiyotga chet el kapitalini jalb etish va uning faoliyatini tartibga solish, boshqarish va rag`batlantirish masalalarini tadqiq etish muhimdir. Chet el investitsiyalari hajmining o`shishiga ijobiy ta`sir ko`rsatgan omillarga iqtisodiyotda xususiy mulkning yuqori mavqei va takomillashgan raqobat muhitining mavjudligi, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, keng va to`lovga qobiliyatli, rivojlangan iste`mol bozorining mavjudligi, boy va turli xildagi tabiiy resurslar zaxiralarining mavjudligi, erkin iqtisodiy siyosatning tanlanganligi, xorijiy kapital uchun turli iqtisodiy imtiyozlar va rag`batlantirish tizimining joriy etilganligi, aholining intellektual salohiyati yuqoriligi va bundan ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanish imkoniyatlari kengligi, chet el kapitalining erkin faoliyati uchun tegishli institutsional tizimning barqarorligi va nisbatan uzoq muddatga mo`ljallanganligi kabilarni kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. <https://lex.uz/docs/-4154478>
2. https://daryo.uz/uz/p/reklama-zojlastiris?utm_source=reklama-adfox&utm_medium=test&utm_campaign=rrr
3. <https://studylib.ru/doc/6551768/o`zbekistonda--barqaror-iqtisodiy-o`shish-uchun-investitsi...>
4. <https://president.uz/oz/lists/view/6975>
5. "Investitsiya va inavatsiyalar" kitobi To`xliyev Bozor Karimovich Toshkent 2021 yil
6. www.researchgate.net O`zbekiston iqtisodiyotini samarali foydalanish
7. KHAKIMOV O., JALOLIDDINOVA S. IMPACT OF DEPRESSION ON HUMAN LIFE //Social sciences.
8. Fuct Fulness Xans Rolsning kitobidan Olinga qisqacha parchalar 2022 yil
9. <https://kun.uz/news/2024/02/24/ozbekistonda-ozlashtirilayotgan-xorijiy-investitsiya-hajmida-ulushi-yuqori-davlat-malum-boldi>
10. <https://qalampir.uz/uz/news/2022-yilda-uzbekistonga-eng-kup-k-aysi-davlat-investitsiya-kiritgan-77532>
11. https://stat.uz/images/uploads/reliz-2023/investitsiya-uzb_25_07_2023_.pdf
12. <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-o-zbekiston-iqtisodiyotida-xalqaro-investitsion-muhitni-yaratishning-statistik-tahlili>
13. <https://review.uz/uz/post/razvitie-ekonomiki-uzbekistana-v-2023-g>